

INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNING TARJIMASI XUSUSIDA

Ro'ziyeva Farangiz

DTPI talabasi

Annotatsiya: *Boshqa tillar singari ingliz tilida ham maqollar muhim tadqiqod mavzusi hisoblanadi. Bugunga qadar ushbu sohada ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan Ingliz tilida ham maqollar atroflicha o'rganilgan va ularning ba'zi jihatlari o'zbek tili bilan qiyoslangan. Ushbu maqolada esa Ingliz tilidagi maqollar va ularning o'zbek tilidagi ma'nolari xususida so'z yuritiladi. Ingliz tilidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjimasi misollar orqali yoritilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ingliz va O'zbek maqollari, qiyosiy tahlil, tarjima, ekvivalentlik*

Annotation: *In English, like other languages, proverbs are an important subject of study. Until today, many scientific researches have been conducted in this field. In particular, proverbs in English have been thoroughly studied and some of their aspects have been compared with the Uzbek language. This article talks about English proverbs and their meanings in Uzbek. The translation of English proverbs into Uzbek is explained through examples.*

Key words: *English and Uzbek proverbs, comparative analysis, translation, equivalence.*

KIRISH:

Maqollar xalqning ma'naviy madaniyati urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham ma'no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tili va chet tillarni chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa maqol va matallarga oid tadqiqotlarning hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligini yana bir karra isbotlaydi. Uzoq davrlardan buyon olimlar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan maqol va matallar xalq og'zaki ijodi, etnografiyaning o'rganish ob'ekti bo'lib keldi. Yaqin 30-40 yil ichida bu coha bilan tilshunoslik ham shug'ullana boshladi. Maqol va matallarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar buning yorqin dalilidir¹⁰ So'z ko'rki bo'lgan maqol va matallardan foydalanish har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi¹¹. Maqollar publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda va ayniqsa, badiiy asarlarda keng qo'llanadi. Ular personajlar nutqiy tavsifida, nutqning uslubiy ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

¹⁰ Паремнология Узбекистана. Самарканд. Выпуск I., 1978. Выпуск II., 1980. . Выпуск III., 1981

¹¹ А.Шомақсудов, И.Расулов, Р. Қўнғиров, Х.Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент. "Ўқитувчи" нашриёти. 1983 й. 71-бет

Maqol va matallarining “Uslubiy vazifalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari “tabiiy”, maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual harakterga ega bo’lib, u yoki bu so’z san’atkorining estetik maqsadi, hohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir. Shulardan birinchisini maqol va matallarning lisoniy (uzual) uslubiy vazifalari deb, ikkinchisini esa nutqiy (okkazional) uslubiy vazifalari deb nomlash mumkin”¹². Maqol va matallarning uslubiy vazifasi asosan fikrlarni umumlashtirishdan iborat. Bunday iboralar juda qisqa bo’lib matnga qandaydir mazmun kiritadi. Matalda o’xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so’z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Maqol tarkibidagi so’zlarning bir-biriga qofiyalanib kelishi bu alliteratsiya, ya’ni so’zlar tarkibidagi undoshlarning uyg’o’nlashib, takror kelishi, qapama-qarshi ma’noli so’zlarning birikishi ham maqollarning shakl xususiyatlariga xos belgilardandir. Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo’lini aks ettiradi, shuning uchun ham yozuvchilar maqollarga tez-tez murojaat etadilar. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo’lishida muqobil uslubiy vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko’z qanday bezak bo’lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday kuch hayotiylik bag’ishlaydi- ayrim asarlarda epirgraf qolib keltirilgan maqollar shu asar g’oyasini, maqsadini yaqqol ifodalab turish uchun xizmat qiladi¹³. Maqollardan nutq yoki asar kimga mo’ljallanganligiga, fikrni yorqin qilishi, ta’sir doirasiga e’tibor bergan holda o’rinli foydalanish lozim. Maqol va matallar yozuvchilar, jurnalistlar hayotida bitmas-tuganmas boylikdir. Ular o’zining ixcham shakli va chuqur mazmunga ega bo’lishi bilan yozma hamda og’zaki uslubning boshqa formalaridan ajralib turadi. G’oyaviy mazmuni ma’naviy - ahlokiy xulosasiga ko’ra xilma-xil, rangbarang bo’lgan maqollar stilistik funksiyasi jihatidan ham o’ziga xos xususiyatga ega. Maqollarda keng va teran g’oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e’tibor berish va talabchan bo’lishga o’rgatadi. To’g’ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi. Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo’lishi, o’z o’rnida to’g’pi ishlatilishiga, nutqni aniq va ta’sirchan qilishiga alohida e’tibor berish kerak. Shu kabi xususiyatlar Ingliz tilidagi maqollarda ham mavjud bo’lib, ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilamiz:

- The absent is always in the wrong- O’zi yo’qning — ko’zi yo’q.
- There is no accounting for tastes -Har kim suygan oshini ichadi.
- Actions speak louder than words-Gap bilguncha — ish bil.
- Advise none to marry or go to war-Har kimning niyati o’zining yo’ldoshi.

Ingliz tilidagi eng ko’p qo’llaniladigan maqollar tarjimasini:

- While there is life, there is hope - chiqmagan jondan umid
- There is a small choice in rotten apples -boriga baraka

¹² Б.Юлдашев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал – услубий хусусиятлари. ДДА, Тошкент, 1993 й. 22-37 бетлар.

¹³ Э. Киличев. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Тошкент “Ўқитувчи”1985. 72-бет.

- If there were no clouds we should not enjoy the sun - mashaqqatsiz rohat bo'lmas.
- There is no so faithful friend, as a good book - kitob - eng yaxshi do'st.
- Tastes differ - har kimni yo'rig'i boshqa.
- Where there is a will there is a way — xohish bo'lsa ish bitar
- Turn over a new leaf - o'tgan ishga salavot
- There is no royal road to learning -ilm ajri mushkul
- When a friend asks, there is no tomorrow - do'sting uchun zaxar yut
- There are spots even on the sun - o'ying 15 qorong'u
- There is no smoke without fire - shamol bo'lmasa daraxt shohi silkimas.
- There is no place like home - mehmonda afzal - uyda ikki karra abzal

Ba'zi bir ingliz maqollarning o'zbek yoki boshqa qiyosiy tahlil qilinayotgan tilda bitta emas bir nechta ekvivalentlari uchrashi mumkin. Bunda muqobil variantini tanlash tilshunos yoki tarjimon zimmasidagi vazifa hisoblanadi va bu ularning tarjima mahoratiga, kontekstni kognitiv tahlil qila olish qobiliyatiga bog'liqdir. Masalan: ingliz tilidagi "After a storm comes calm" maqoliga nazar tashlasak, so'zma- o'z tarjima qilinganda: "Bo'rondan keyin tinchlik keladi" deb tarjima qilinadi.

XULOSA VA MUNOZARA:

Ingliz va o'zbek maqollarini qiyosiy-tahlil qilishda, tarjima qilishda tilshunos va tarjimonlar oldida maqollarning o'zbek tilidagi munosib variantini topish masalasi, maqollarning adekvatik muammosi turadi. Aytib o'tganimizdek maqollardagi ingliz xalqiga xos bo'lgan milliy-madaniy konseptlarni yaxshi tushungan tilshunos bu borada, ya'ni ingliz xalq maqollarining o'zbek tilidagi muqobil variantini to'g'ri topa oladi. Chunki bu kabi madaniy birliklarni oddiy so'zlovchi tarjima qilishda qiynalishi tabiiy.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lakoff, G., & Turner, M. (1989). *More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*. Chicago: University of Chicago Press
2. Article: Proverbs: The Extended Conceptual Base and Great Chain Metaphor Theories" by Richard P. Honeck & Jon G. Temple Pages 85-112 | Published online: 17 Nov 2009
3. Паремнология Узбекистана. Самарканд. Выпуск I., 1978. Выпуск.II., 1980. . Выпуск III., 1981
4. А.Шомақсудов, И.Расулов, Р. Қўнгиоров, Х.Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент. "Ўқитувчи" нашриёти. 1983 й. 71-бет
5. Б.Юлдашев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал – услубий хусусиятлари. ДДА, Тошкент, 1993 й. 22-37 бетлар.
6. Э. Киличев. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Тошкент "Ўқитувчи"1985. 72-бет.